

Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi.

Alfraganus Universitety Pedagogika fakulteti defektologiya

(logopediya) yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar.

Utbasarova Umida Mexmanovna.

Alfraganus Universitety Pedagogika va Psixologiya kafedrası

o'qituvchisi.

Ruziyeva Guzal Shukhrat kizi.

3rd year student of the Defectology (Speech Therapy) department of the Faculty of

Pedagogy of Alfraganus University.

Scientific advisor.

Utbasarova Umida Mekhmanovna.

Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology of Alfraganus University.

“MAKTABGACHA YOSHDAGI OVOZ BUZULISHIGA EGA BOLALAR
BILAN GURUHLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISH.”

“Organization of group classes with preschool children with voice disorders.”

Annotatsiya: maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatiladigan ovoz buzulishlari
uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladi va ta'lim olishini murakkablashtiradi.

Bugungi kunda nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash ,ularni
maxsus ta'limga jalb qilish bo'yicha butun jahon miqyosida ,korreksion pedagogik
ishlar olib borilmoqda.

Kalit so'zlari: maktabgacha yoshdagi bolalar, nutq buzilishi, ovoz buzilishi,
korreksion ish jarayoni, turli xil tovushlar jamlanmasi, ovoz un naychalari, guruhli
mashg'ulotlar.

Abstract: Voice disorders observed in preschool children hinder and complicate
their education. Today, corrective pedagogical work is being carried out worldwide

to identify children with speech disorders early and involve them in special education.

Keywords: preschool children, speech disorders, voice disorders, correctional work process, set of different sounds, vocal folds, group exercises.

Kirish: Rivojlanib borayotgan O'zbekistonimizda so'nggi yillarda jahon miqiyosida maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va maxsus ta'lim muassalariga jalb qilish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilayotgan bo'lib jalb qilingan bolalarni hayotga tayyorlash zarur bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish ishlari olib borilmoqda. Maktab va maktabgacha tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini bugun hammamiz yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarga to'g'ri ta'lim tarbiya berish eng muhim masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Shu jumladan, maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ovoz buzulishlariga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus pedagogik ish jarayonlari tashkil etilgan bo'lib, bolalardagi ovoz buzulishlarini bartaraf etish va to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ishlar tashkil qilinib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatiladigan ovoz buzulishlari uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladi va ta'lim olishini murakkablashtiradi. Bugungi kunda nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash, ularni maxsus ta'limga jalb qilish bo'yicha butun jahon miqiyosida, korreksion pedagogik ishlar olib borilmoqda. Shuningdek nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ushbu ilmiy ishlar yordamida bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari va nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha korreksion logopedik ishlar tashkil etilmoqda. Bolaning o'sishi va rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilayotga ovoz buzulishlari juda keng tarqalgan desak mubolag'a

bo'lmaydi. Avvalo ovoz nima va uning hosil bo'lishida qaysi nutq a'zolarimiz faol ishtiro etadi degan savolga javob topib olishimiz kerak.

Ovoz – bu un naychalarining elastik tebranishi natijasida hosil bo'ladigan turli xil tovushlarning o'ziga xos xususiyatlar majmuasidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo'ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarga taqlid qilishi mumkin. Otolarinologiya fanining rivojlanishi sababli, foniartriya degan yangi fan mustaqil bo'lib ajralib chiqdi. Faniartriya – ovoz apparati kasalliklarini vujudga kelishi va ularni davolash yo'llarini o'rganadi. Fonopediya – logopediya fanining bir bo'limi. U maxsus pedagogik yo'llar bilan ovozni to'g'irlash bilan shug'ullanadi. Hammamizga ma'lumki ovoz hosil bo'lishida: diafragma, o'pka, bronxlar, traxeya, halqum, hiqildoq, burun bo'shlig'i va uning yuz peshona suyaklari orasida joylashgan qo'shimcha kovaklari ishtirok etadi.

Hiqildoqda joylashgan ovoz boylamlari, muskullari bilan birga, ovoz hosil bo'lishida til, lablar, og'iz bo'shlig'i ham ishtirok etadi.

Diafragma va qovurg'alararo mushaklar nafas olishda faol qatnashadi. Qovurg'alararo muskullarning faol ishtirok etishi ko'krak bilan nafas olishdir. Nafas chiqarish harakati ichki qovurg'alararo va qorin muskullarining qisqarishi orqali ta'minlanadi.

O'pka – nafas olish sistemasining asosiy organlaridan biridir. O'pka bir juft bo'lib konussimon tuzilgan. Ular ko'krak qafasining ikki tomonida o'ng vachapo'pkaning o'rtasida traxeya, qizilo'ngach, qon tomirlari ayrisimon bez, nerv tolalari, limfa, tomirlari va tugunchalari hamda yurak joylashgan. O'pkaning nafas olish va chiqarish funksiyani asosan alveolalar bajaradi.

Traxeya – hiqildoqning pastki qismida, ya'ni VI-VII bo'yin umurtqalari ro'parasidan boshlanib V ko'krak umurtqasi ro'parasigacha davom etadi va shu joyda o'ng va chap bronxlarga bo'linadi. Uning uzunligi odamning bo'yiga qarab 11-13 sm gacha yetadi.

Bronxlar –ko'krak umurtqasi ro'parasida traxeyaning 2ga bo'linishidan hosil bo'ladi.Bronxlar xuddi daraxt shoxiga o'xshab ko'p bronxlarga tarmoqlanadi va bora- bora alveola pufakchalarini hosil qiladi

Hiqildoq - IV-VI bo'yin umurtqalari ro'parasida joylashgan .Hiqildoq havo o'tkazuvchi o'tkazuvchi nafas yo'li vazifasini bajaradi.U tovush hosil qiladigan apparatdir .Hiqildoqdan havo traxeyaga o'tadi.

Burun bo'shlig'I –yuqori ,pastki va ikki yon devoridan tashkil topgan .Bundan normal sharoitda olgan va chiqargan hamma havo o'tadi.Burun bo'shlig'I – nafas olish , saqlash hid bilish va rezanatorlik funksiyasini bajaradi.Ovoz hosil bo'lishida rezanatorlik va nafas olish funksiyasi katta ahamiyatga ega .

Burun bo'shlig'ida havo normada bo'ladi .U ovoz uchun harakatsiz rezanator bo'ladi ,u ovozni kuchaytiradi va ovozga ma'lum tembr va kuchayish beradi. Burun bo'shlig'i hiqildoq tomonidan ochiq qoladi ; burun bilan talaffuz qilinadigan undosh tovushlar m va n hamda ba'zi bir unlilar gapirilganda halqum ovoz rezanatori bo'lib xizmat qiladi .Halqum ,ovoz bo'shlig'I bilan unli va undosh tovushlarni shakillantiradigan , tembrli xususiyatlarga ega o'rganlardir .

Hiqildoqda asosiy tovush hosil bo'ladi ,so'zlash nutqi esa tepa qo'yilgan trubkada hosil bo'ladi .SHunday qilib odamning ovoz apparati o'zi bilan murakkab tizimni tashkil etadi.Uning harakati natijasida tovush hosil bo'ladi.Ovoz apparatining barcha funksiyalari bir biri bilan bog'langan holda, bosh miya po'stlog'iga bo'ysunadi.Ovoz hosil bo'lish jarayoni juda murakkab bo'lganligi sababli juda kam o'rganilgan .

XIX asr o'rtalariga kelib fiziologik va akustik o'rganish metodlari yuzaga kelgach , ovoz hosil bo'lish mexanizmini ilmiy jihatdan tushuntirishga imkon tug'uldi.Bu davrga kelib fonatsiya nazariyasida mioelastik nazariya yuzaga keldi, uning asoschisi Ferron (I.Maksimov 1987-y) hisoblanadi.Mioelastik nazariyaga ko'ra ovoz hosil bo'lishining asasiy sababi traxeya va kekirdakning ichki muskullariga havoni ko'rsatadigan bosimdir .Ovoz hosil bo'lishida ovoz burmalari o'rtasida ularning muskullari va burma osti bosimi natijasida o'zaro

bog'liqligi yuzaga keladi ,bunda traxeyada havo oqimi qanchalik kuchli bo'lsa ,boylam shunchalik kuchli qarshilk ko'rsatadi.Nafas muskullarining murakkab tizmi traxeya va bronxlarning ichki bosimi doimiyligini ta'minlaydi va u yoki bu tovushning to'g'ri talaffuziga yordam beradi .Fonatiya vaqtida ovoz boylamlari havo bosimiga to'la bo'g'liq bo'lmaydi., aksincha , markaziy nerv tizimi boshqaruvi ostida nafas organlarining muskullari tonusini faol boshqarib turadi.Boylam osti muskullarini o'zgartirish kerak bo'lib qolganda , bosh miya po'stlog'i zarur chora ko'radi.Ya'ni kekirdak va ovoz boylamlari muskullari to'nusini o'zgartirib ,tebranish chastotasini pasaytiradi yoki orttiradi.Bu jarayon murakkab reflektor usuli orqali eshitish analizatori ishtirokida boshqariladi.

J.Van den Berg(1958y) aytishicha , ovoz boylamlarini tebranish harakatiga sabab kekirdakda yuzaga keluvchi aerodinamik muskul harakatlari va elastik kuchlarning birgalikdagi ta'siridir.R.Husson ovoz hosil bo'lish fiziologiyasini o'rgangan holda ovoz hosil bo'lishini neyroxronaksik nazariyasini yaratdi.R.Husson va uning tarafdori T .Frint(1969y)larning hisoblashicha , ovoz boylamlari havo oqimi ta'sirida tebranmaydi , balki bosh miyadan kekirdak osti nerviga keluvchi nerv impluslari ta'sirida doimiy ravishda qisqarib bo'shashib turadi. Tajriba ma'lumotlariga tayangan holda ular ovoz boylamlari muskullarining qisqarishi qaytuvchi nerv impluslari chastotasiga teng degan xulosaga keladilar .J.Perello (1962) fonatsiyaning mukoundulyar nazariyasini olg'a surdi , unga ko'ra ovoz boylamlarining tebranishi shilliq qavatni ixtiyoriy to'liqinsimon harakati bo'lib , shilliq qavat ovoz boylamlarini qoplab turadi.To'liqinsimon harakat subxorda qismida hosil bo'lib yuqoriga , oldinga , orqaga tarqaladi, ovoz boylamlarining chetidan o'tib yuqorida kekirdak qorinchasiga yaqin joyda yo'qoladi.Bizningcha bu nazariya fonatsiyani mexanik nuqtaiy nazardan tushuntiradi . va kekirdak muskullari bilan markaziy nerv tizimi o'rtasida bog'liqlikni ochib bera olmaydi Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida ta'limni tashkil etishning noan'anaviy

shakllaridan samarali foydalanilmoqda: darslar nafaqat guruhlarda, balkibolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan kichik guruhlar bo'yicha. Ular doira ishi bilan birlashtiriladi: qo'l mehnati, tasviriy faoliyat. Darslar o'yin va ertaklar bilan boyitiladi. O'yin kontseptsiyasiga berilib ketgan bola yashirin o'rganish vazifasini sezmaydi. Bu mashg'ulotlar bolaning vaqtini bo'shatishga yordam beradi, u o'z xohishiga ko'ra foydalanishi mumkin: dam olish yoki u uchun qiziqarli yoki hissiy jihatdan muhim bo'lgan narsalarni qilish.

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarga hayvonlar tovushiga taqlid qilishni o'rgatish va ularning nima bilan oziqlanishi haqida ma'lumot berish; ertak asosida axloq sifatlarini tarbiyalash; tarbiyalanuvchiga obrazlarning go'zalligi, tilining ifodaviyligi, she'riy so'zlarining ma'nodorligini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlarining rasmlari: sichqoncha, onasi, tovuq, o'rdak, baqa, baliq va mushuk.

O'jar sichqoncha» mashg'ulot ishlanma.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: – Bolajonlar, bugun men sizga qiziqarli va ajoyib ertak aytib beraman. Ushbu ertak o'jar sichqoncha haqida.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda ona sichqon yolg'iz o'g'li bilan yashagan ekan. U har tun bolasini shunday allalab uxlatar ekan:

– Chi-chi-chi-chi, uxlasin.

O'zimning yolg'iz o'g'lim.

Ulg'ayib, katta bo'lsin.

Girgitton bo'lay o'zim.

Lekin ahmoq sichqoncha

Der onasiga baqirib:

– Kerak emas ovozing,

Chi-chi-ku bor sozing.

Topib bergin boshqasin,
Bo'lsin mayin ovozi
Hamda muloyim sozi.
Ona sichqon tez borib,
Der tovuqqa yolvorib:
– Tovuq xola, uyga yur,
Bolanmi tervatib tur.
Tovuq kelib sichqonning
Bolasin uxlatibdi– Qo'-'qo'-'qo'-'qo', uxlasin



Sichqonvoyning bolasi.
Erta tongda turganda,
Don-dun berib boqaman.
Lekin ahmoq sichqoncha,
Der onasiga baqirib:
– Kerak emas ovozi,
Qo'-'qo'-'ku bor sozi.
Topib bergin boshqasin
Bo'lsin mayin ovozi
Hamda muloyim sozi.
Ona sichqon tez borib,
Der o'rdakka yolvorib:

– O‘rdak xola, uyga yur,
Bolamni tervatib tur.
O‘rdak kelib sichqonning
Bolasin uxlatibdi:
– G‘a-g‘a-g‘a-g‘a, uxlasin,
Sichqonvoyning bolasi.
Erta tongda turganda,
Baliq berib boqaman.
Lekin ahmoq sichqoncha,
Der onasiga baqirib:
– Kerak emas ovozi,
G‘a-g‘a-ku bor sozi.
Topib bergin boshqasin
Bo‘lsin mayin ovozi
Hamda muloyim sozi.
Ona sichqon tez borib,
Der baqaga yolvorib:
– Baqa xola, uyga yur,
Bolamni tervatib tur.
Baqa kelib sichqonning
Bolasin uxlatibdi:
– Vaq-vaq-vaq-vaq, uxlasin,
Sichqonvoyning bolasi.
Erta tongda turganda,
Pashsha, chivin beraman.
Lekin ahmoq sichqoncha,
Der onasiga baqirib:
– Kerak emas ovozi,
Vaq-vaq-ku bor sozi.

Topib bergin boshqasin
Bo‘lsin mayin ovozi
Hamda muloyim sozi.
Ona sichqon tez borib,
Der baliqqa yolvorib:
– Baliq xola, uyga yur,
Bola mni tervatib tur.
Baliq kelib sichqonning
Bola sin uxlatibdi:
Ammo chiqmas sozi,
Chunki yo‘qdir ovozi.
Shunda o‘jar sichqonning
Battar jahli chiqib,
Der onasiga baqirib:
– Kerak emas ovozi,
Yo‘q ekan-ku sozi.
Topib bergin boshqasin
Bo‘lsin mayin ovozi
Hamda muloyim sozi.
Ona sichqon tez borib,
Der mushukka yolvorib:
– Mushuk xola, uyga yur,
Bola mni tervatib tur.
Mushuk sichqonni ko‘rib
Ishtahasi ochilib,
Uxlatishga tushibdi:
– Miyov-miyov, uxlasin,
Sichqonvoyning bolasi.

Shunda tentak sichqoncha

Der mushukka ohista:

– Muncha shirin ovozing,

Biram yoqimli sozing.

Ona sichqon ko‘ngli to‘q

Uxlab qopti bir zumda.

Erta turib yolg‘izin,

Topolmabdi hech yoqda.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, ertak sizga yoqdimi?

– Sichqoncha qanday ekan?

– Ona sichqon nima uchun bolasini topa olmabdi?

– Tovuq qanday alla aytibdi va nima beraman debdi?

– G‘oz va baliq-chi?

Mashg‘ulot yakunida tarbiyachi bolalar bilan ertak qahramonlarining ovoziga taqlid qilib, “Bu nimaning ovozi?”, “Ular nima yeydi?” kabi savol-javob o‘tkazadi.

Xulosa.

Ovoz buzilishlariga ega bo‘lgan bolalar bilan pedagogik ishlarni tashkil qilishda korreksiya qilish tibbiy va ruhiy-pedagogik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ovoz - bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig‘indisidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo‘ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarda taqlid qilishi mumkin. Biz qanday tovushni olmaylik, barchasi fizik hodisa bolib, akustikada o‘rganiladi. Tovush yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, uning qonuniyatlari aniqlangan. Kuylovchi yoki nutqiy ovozning birgina tovushi ham akustik ahamiyatga egadir. Uni bilgan holda ovozning kerakli xususiyatlarini yuzaga keltirish mumkin. Tovush deganda, akustikada tebranish va to‘lqinlarning zich muhitda tarqalishi tushuniladi. Ovoz tovushi to‘lqin ko‘rinishida havo qismlarining tebranishidir. Bu to‘lqinlar ovoz boylamlarida yuzaga kelib, ularni bir-biriga yaqin joylashgani, tarangligi natijasida havo oqimi

o'tib, boylam osti bosimi yuqori va nerv impulslarining ta'sirida tebranish yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: TDPU - 2013.
2. Sodiqova Q. , Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. — T.: «Yangi asr avlodi», 2009.
3. Aytmetova S.Sh. Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari. — T: «O'qituvchi», 1984.
4. Mamedov K, Shoumarov G'., Podobed V. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. — T.: 1999.
5. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. — T.: Uzinkomsentr, 2002.
6. Ayupova M. Logopediya. — T.: «O'zbekiston faylasuflari miliy jamiyat nashriyoti», 2007.